

ATR-72 samolyotlariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha Uzbekistan Airways Technics mutaxassislarni o'qitish

2023 11 Yanvar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi "Respublikada mahalliy aviaqatnovlarni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 2023-yilning 9-yanvaridan boshlab "Uzbekistan Airways Technics" MChJda aviatashkilot xodimlari uchun ATR-72 havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha mashg'ulotlar davom ettirilmoda. Ushbu o'quv mashg'ulotlarda Uzbekistan Airways Technics kompaniyasining 18 nafar va SILK AVIA aviakompaniyasining 3 nafar xodimlari o'qitilmoqda.

Mazkur professional kurslarda dars berish uchun xorijlik mutaxassislar jalb qilindi. Yanvar oyida o'quv jarayonlari bilan birgalikda amaliyot ham o'tkazilishi rejalashtirilgan. Tayyorlov kurslari "O'quv-mashg'ulot markazi" MCHJ hududida bo'lib o'tmoqda.

Eslatib o'tamiz, Uzbekistan Airways Technics kompaniyasi xodimlarini ATR-72 havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha o'qitish jarayonlari 2022-yilning 21-noyabrida boshlangan edi.